

Tola sifati va hosildorligi yuqori bo'lgan “Porloq-4” g'o'za navi

Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazi olimlari tomonidan tola sifati va hosildorligi yuqori bo'lgan yangi g'o'za navlari yaratilgan bo'lib, bugungi kunda ushbu g'o'za navlari fermer xo'jaliklari va agroklastlar tomonidan yetishtirilmoqda.

Xususan, “Porloq-4” g'o'za navi 2021-yilda Qashqadaryo viloyatida fermer xo'jaliklari va agroklastlar tomonidan 25 ming gektar maydonda yetishtirilib, viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichga ya'ni, gektaridan o'rtacha 50-55 sentnergacha hosil olishga erishildi. Bu esa “Porloq-4” g'o'za navini yetishtirgan fermerlarning yuqori daromadga erishishiga olib keldi.



Bundan tashqari, viloyatda g'o'zaning yangi “Porloq-3”, “Porloq-5”, “Porloq-7” g'o'za navlari elita avlodli urug'liklari yetishtirilib, keng qamrovli sinov ishlari olib borildi va urug'lik paxta xom ashyosi jamg'arildi. Ushbu g'o'za navlari ham Qashqadaryo viloyatining noqulay issiq garmsel shoritiga o'zining bardoshlilikini ko'rsatib, gektaridan 40-45 sentner hosil olishga erishildi. Viloyatning ko'plab fermerlari va agroklastlari qiziqish bildirib, kelgusi 2022-yil hosili uchun ushbu g'o'za navlarni yetishtirish taklif va talablarini bildirdi.

2021-yil mavsumida Qashqadaryo viloyati bo'yicha “Porloq-4” g'o'za navidan 1741 tonna urug'lik paxta xom ashyosi jamg'arildi. Joriy yilda ekish uchun 1000 tonna urug'lik chigit tayyorlash reja qilingan bo'lib, hozirda urug'lik chigitlarni qayta ishlash, dorilash va qadoqlash tadbirlari olib borilmoqda

Shuningdek, “Porloq-4” g'o'za navi joriy yilda Namangan viloyatida “Porloq Chust” brendini yaratish maqsadida qariyb 500 gektarga maydonda yetishtirilib, yuqori hosil olishga erishildi. Ayniqsa, Chust tumanida ushbu navdan boshqa navlarga nisbatan gektaridan 10 sentnergacha yuqori hosil olishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa fermerlar va agroklasterning qiziqishini uyg'otdi va ko'proq ekishga talab va takliflar berildi. Shu sababli joriy 2022-yil hosili uchun tumanning o'zida 2000 gektar maydonda “Porloq-4” g'o'za navi yetishtirish bo'yicha taklifini berdi. Viloyatda 178 tonna urug'lik paxta xom ashyosi jamg'arilib, 100 tonna urug'lik chigit tayyorlandi.

“Porloq-4” g'o'za navi 2021-yil mavsumida Toshkent viloyatida ham 2000 gektarga yaqin maydonda yetishtirilib yuqori hosildorlikka erishildi. Ushbu g'o'za navidan 280 tonna urug'lik paxta xom ashyosi jamg'arilib, 2022-yil hosili uchun 140 tona urug'lik chigit tayyorlanmoqda.

“Porloq-4” g'o'za navi tola sifati III-tip ga mansub ekanligi sababli, tekstil sanoatida yuqori sifatli mahsulot olish imkonini bermogda. Bu esa klarterlarga qo'shimcha daromad keltirib, paxtachilikda iqtisodiy o'sishni

ta'minlaydi.